

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 528 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi.....	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматов Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish	345
Xudoyorov Laziz Niyojovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilgan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafroz O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalarini faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodilloevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari.....	402
Oybek Toshmurovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli.....	422
Abdullayeva Dildora Qudratovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva Mahliyoqon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari.....	448
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni.....	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Raiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ.....	482
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari.....	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yoʻnalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович	



KICHIK SANOAT ZONALARINI BARPO ETISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li
TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası
tayanch doktranti



Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik sanoat zonalarining barpo etilishi asoslari va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ta'siri hamda ahamiyati yoritilgan, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatining YaIMdagi ulushini oshirish bo'icha dolzarb fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, sanoat, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, sanoat mahsulotlari.

Abstract: In this article, the foundations of the establishment of small industrial zones and their influence and importance on the economic growth of the country are highlighted, as well as actual ideas on increasing the share of the industry in the GDP of developing countries are discussed.

Key words: small industrial zones, small business and private entrepreneurship, industry, foreign investments, investment environment, industrial products.

Аннотация: В данной статье освещены основы создания малых промышленных зон, их влияние и значение на экономический рост страны, а также обсуждаются актуальные идеи по увеличению доли промышленности в ВВП развивающихся стран.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, малый бизнес и частное предпринимательство, промышленность, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, промышленная продукция.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida sanoatning o'rni beqiyosdir. Sanoatni rivojlantirish hamda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini eksport qilish orqali mamlakatdagi xorijiy valyutaga bo'lgan talabni qondirish hamda asosi sifatida xorijiy investitsiyalarni ko'rishmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar globallashuvning asosiy drayveri bo'libgina qolmay globallashuv jarayonlarida iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim ro'lni o'ynaydi. U mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonini qo'shimcha kapital bilan ta'minlaydi va iqtisodiy o'sish darajasini oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlar va kichik korxonalarning rivojlantirilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha uzluksiz ravishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida 150 ta kichik sanoat zonalar tashkil qilingan bo'lib, ularning hududida har yili jami 1,7 trln so'mdan ortiq qiymatdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lgan 1 691 ta kichik korxona faoliyat yuritadi va 27 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi.

Kichik sanoat zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko'maklashish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirish, avvalambor foydalanilmayotgan, faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil qilinayotgan importbop mahsulotlarni chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarning joriy etilishini jadallashtirish, ushbu asosda yangi turg'un ish joylari tashkil etilishini ta'minlash va aholi daromadini oshirish maqsadida:

- kichik sanoat zonalar faqatgina transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud yoki o'tkazish oson bo'lgan faoliyat yuritmayotgan korxonalar negizida va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer maydonlarida tashkil qilish;
- yer uchastkalarini berish qonunchilikda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion orqali amalga oshirish;



- d) kichik sanoat zonasida ishtirokchisi tomonidan investitsiya loyihasini kichik sanoat zonasida joylashtirilgan kundan e'tiboran uch oy mobaynida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmaganligi, shuningdek, obyektidan shartnomada ko'rsatilgan maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishiga asos bo'lishi;

Kichik sanoat zonalarining barpo etilishidan asosiy maqsad quyidagilar:

- investitsiyalar jalb qilish uchun sharoitlarni yaxshilash;
- investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta'minlash;
- yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish dolzarbdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada sanoatni rivojlantirish sohasi bo'yicha yetakchi olimlar: S.Yu.Glazyev, R.S.Granberg va Mazilov mintaqada sanoat kompleksini intensiv rivojlantirishga olib keladigan innovatsion omilni eng asosiy omil sifatida o'rganadilar.

Yuqoridagi omillarni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali KSZni barpo etish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi quyidagi omillar tasnifini taklif etish mumkin: yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirish va tizimlashtirish KSZlarni barpo etish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifini tuzishga asos bo'ldi.

1-jadval: KSZlarni barpo etish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi*

Tashqi omillar	Ichki omillar
tabiiy omillar: • iqlim o'zgarishlari; • geografik joylashuvi; • ekologiya talablari; • tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari (xomashyo resurslari zaxirasi va uni oshirish imkoniyatlari, xomashyo ta'minoti bilan shug'ulla-nuvchi korxonalarning imkoniyatlari, ishonchligi, muqobil ta'minotchilarning mavjudligi, bozorda o'rindosh resurslar mavjudligi). • mehnat resurslari: malakali kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlari (malaka darajasi, ish haqi, darajasi, jinsi, yoshi). • marketing omili: mahsulotga talab hajmi, talabning barqarorligi, tashqi talab (mahsulotni eksport qilish, eksport qilish imkoniyatlari). • davlat tomonidan tartibga solish omili: pul-kredit, byudjet-soliq, davlatning bojxona, monopoliyaga qarshi siyosati, • moliyaviy omil: moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati, foiz stavkasi, moliyaviy lizing xizmatidan foydalanish imkoniyati, kszlarni barpo etishda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan foydalanish. • bozor omili: raqobatchi korxonalar mavjudligi, raqobat muhiti, o'rindosh tovarlar mavjudligi, sug'urtalash xizmati. • texnologik: yuqori unumdorli, rivojlangan xorijiy davlatlar texno-logiyalarini olish imkoniyatlari, xorijiy korxonalar bilan qo'shma korxona tashish imkoniyatlari, kszga xorijiy investitsiyalarini jalb etish imkoniyatlari.	• Infratuzilma elementlari mavjudligi: gaz, suv, elektr energiyasi, KSZni magistral transport yo'llariga chiqish yo'llari mavjudligi; • KSZ da joylashgan korxonalarning o'zaro iqtisodiy munosabatlari: KSZ tarkibidagi korxonalar o'rtasidagi raqobat darajasi va shu bilan birga boshqa tashqi korxonalar bilan bo'ladigan raqobat darajasi. • Kooperatsion aloqalar: KSZ tarkibidagi korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari, KSZdan tashqaridagi korxonalar bilan bo'ladigan ishlab chiqarish bo'yicha aloqalar. • Ijtimoiy omil: KSZ da ovqatlanish uchun oshxona, do'kon, meditsina xizmati, avtomobil turar joyi, pochta xizmati. • Axborot omili: ilg'or, unumdor texnologiyalar, innovatsiyalar to'g'risida axborot olish imkoniyati, patentlar bozoridan foydalanish bo'yicha axborot, bozor kon'yunkturasi to'g'risida axborot olish, mahsulot eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalar to'g'risida, ilmiy tadqiqot va malakali kadrlar tayyorlovchi ta'lim muassasalari to'g'risida axborot olish imkoniyatlari. • Innovatsion omil: yangi texnologiyalarni yaratish imkoniyati, yangi mahsulotni ishlab chiqarish (mahsulot innovatsiyasi); mavjud texnologiyani yangilash va uning samaradorligini oshirish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish (jarayon innovatsiyasi).

*Jadval muallif tomonidan mahalliy professor-o'qituvchilar tomonidan yozilgan adabiyotlar asosida tayyorlangan.

Ushbu taklif etilayotgan omillar tasnifi KSZlarni barpo etish va rivojlanishga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga oladi. Omillarning ta'sir ko'rsatishi bo'yicha muhimligi nuqtayi nazaridan qarasak, biz yuqoridagi yetakchi olimlarning fikriga qo'shilgan holda innovatsiya omilini birinchi o'ringa qo'yamiz. Innovatsion omil bu




korxonalarning istiqbolda rivojlanishini ta'minlovchi asosiy, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsiya omilidan to'laonli foydalanish katta mablag' bilan bog'liq bo'lgani uchun KSZlarda bu omildan foydalanish juda past darajada deyish mumkin. Hozirgi kunda KSZlarni rivojlantirish, raqobatbardosh va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish ko'p jihatdan kichik biznes subyektlari tomonidan foydalanilayotgan texnologiya, uskuna va malakali kadrlarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

KSZlar murakkab iqtisodiy tizimni tashkil etadi va unga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ushbu omillarni aniqlash va tizimlashtirish KSZlarni barpo etish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash hamda KSZlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yondashuvlari va vositalarini tanlashda muhim axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

KSZni yagona tizim sifatida o'rgansak, uni barpo etish va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olish lozimdir. Bunday omillar tizimni tashkil etuvchi omillar sifatida o'rganiladi va ular ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Atrof-muhit va jamiyatning sanoat zonasini barpo etishga ta'siri tashqi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tabiiy iqlim (iqlim o'zgarishlari, geografik joylashuv, ekologiya talablari, tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari) omillar;
- siyosiy (geosiyosiy holat, siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, terrorizm) omillar;
- ijtimoiy (ijtimoiy holat, aholining bandlik darajasi, demografik holat, aholini sotib olish qobiliyati, aholi sog'lomligi) omillari;
- davlat tomonidan tartibga solish omili: (pul-kredit, byudjet-soliq, davlatning bojxona siyosati, monopoliyaga qarshi siyosat, hududiy iqtisodiy siyosat, davlat tomonidan kichik biznes va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash darajasi, faoliyat turlarini litsenziyalash va mahsulotni sertifikatlash, ijtimoiy va milliy xavfsizlikni ta'minlashni amalga oshirish talablari bajarilishini nazorat qilish);
- resurs omillari (kerakli mehnat va moddiy resurslarni jalb etish imkoniyati);
- bozor omillari: raqobatchilar va erkin raqobat muhiti mavjudligi, mahalliy iste'molchilarning mahsulotga talabi, umumun, respublikada shu mahsulotga bozor bo'yicha talab mavjudligi;

Shunday qilib, omillar tahliliga ko'ra, ko'pchilik mualliflar omillarni tashqi va ichki omillarga ajratadilar. O'z navbatida, bu omillar to'rtta: iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va siyosiy guruhga ajratib ko'rsatilmoqda.



1-rasm: KSZni barpo etish va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarning tasniflanishi

Yangi, ilg'or xorijiy davlatlarda ishlab chiqilgan texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan kichik sanoat korxonalari yoki kichik biznes subyektlari barqaror faoliyat yuritishiga erishishi mumkin. Shu sababli KSZlarda faoliyat yurituvchi kichik sanoat korxonalari va kichik biznes subyektlarining oldida turgan asosiy to'siq, bu ularning daromadi pastligi, yangi samarali xorijiy texnologiyalarni sotib olish imkoniyatlari, ilmiy tadqiqot ishlariga investitsiya kiritishning cheklanganligidir. Natijada zona qatnashchilarining ko'pchilik qismi eskirgan, ortiqcha xarajat talab etuvchi uskuna va texnologiyalardan foydalanishiga to'g'ri kelmoqda. Bunday salbiy holatning oldini olish uchun KSZ korxonalarini modernizatsiya qilish, eskirgan asosiy fondlarni yangi texnologiya va uskunalar bilan almashtirish zonalarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi yo'llardan biri bo'ladi. Shu o'rinda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati naqadar yuqori ekanligini bilishimiz mumkin.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o'z aksini topgan umumli bandlik va kambag'allikni qisqartirish masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondoshuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.



TAHLIL VA MUHOKAMA

Mamlakatimizning 2017–2021-yildagi sanoat ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish yildan-yilga oshib borgan.



1-grafik: Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

2-jadval: Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari 2017–2021-yy.

Ko'rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	148 816,0	235 340,7	322 535,8	368 740,2	451 633,9
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	105%	111%	105%	101%	109%


Sanoat mahsulotlari hajmi 2017–2021-yillar davomida doimiy o'sib kelgan. Eng yuqori o'sish surati 2018-yilda qayd etilgan 111% 2017-yilga nisbatan solishtirganda. Shuningdek, eng past o'sish surati 2020-yil qayd etilgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan 101% ni tashkil qilgan va buni biz COVID-19, ya'ni pandemiya bilan bog'lashimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga holati bo'yicha qarasak, respublika bo'yicha faoliyat yurituvchi KSZlar soni 114 ta bo'lib, ularning tarkibida jami 1869 ta korxonalar mavjud.

2021-yilda mamlakatimizda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 43099,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bundan 9,2%i, yoki 3964,4 mlrd. so'm KSZ hissasiga to'g'ri kelgan.

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2020-yilda 2694,2 mlrd.so'mni, 2021-yilda esa 3964,4 mlrd.so'mni tashkil qilgan. O'sish sura'ti bazis yilga nisbatan (2020-yil) qariyb 147,1%ni, yoki 1270,2 mlrd.so'mni qayd etgan.

2022–2026-yillar oralig'ida sanoat mahsulotlarining YaIM tarkibidagi ulushini yanada oshirish ustuvor vazifa qilib olindi. Buning uchun, albatta, investitsiyalarning hajmini oshirishga to'g'ri keladi. Shu sababdan ham mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga bo'gan talab yuqori. TTXlarni mamlakatimizga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida o'rgan besh yillik davr mobaynida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, qulay investitsion muhitni yaratilib berilishi, xorijiy investorlar uchun turli xil imtiyozlarning mavjudligi, ularning mamlakatimizdagi investitsion faoliyati huquqiy jihatdan kafolatlanganligini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasi o'laroq sanoat mahsulotlari yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa malakatimizda sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga asos bo'lmoqda.




2-grafik: Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2020–2021-yillar


2021-yilda respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovar va xizmat) lari miqdori jami 10322,3 mlrd.so'mni tashkil qildi, shundan KSZda 1000,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Bu esa umumiy eksport qilingan sanoat mahsulotlari hajmining 9,7% ulushiga teng.

Kichik sanoat zonalar hududlar bo'yicha, shahar, shahar chetida va tumanlarda joylashuviga ko'ra farqlansa, to'g'ri bo'lardi. Hududlar iqtisodiy salohiyati, sanoat salohiyati ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari soni, resurslari, iqlim va boshqa sharoitlari bilan o'zaro farq qiladi. Hududlarning iqtisodiy salohiyatini hududiy yalpi mahsulot bildirsa, sanoat salohiyatini hududda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti ifodalaydi.

Kichik sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'nalishlari bugungi kunda hukumatimiz tomonidan hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko'tarishda institusional islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2017–2021-yillarning o'zida kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, preferensiyalar berish, biznesni boshlash va uni davom ettirish bo'yicha qulaylikliklar, imtiyozlarni amalga oshirish bo'yicha ko'pgina yangi huquqiy-me'yoriy hujjatlar kuchga kirdi. Bularning samarasi o'laroq, yalpi ichki mahsulot hajmi 2021-yilda 7,4 foiz, sanoat hajmi 8,7 foiz, qishloq xo'jaligi hajmi 4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 5,2 foiz, qurilish ishlari 6,8 foiz, chakana tovar aylanmasi 12,0 foiz, Tashqi savdo aylanmasi 16,0 foiz, eksport hajmi 10,0 foiz, import hajmi esa 20,4 foiz ga o'sdi.



3-grafik: 2017–2021-yillardagi jami YaIM (mlrd. so'm)




4-grafik: O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi YalM hajmi joriy narxlarda 734 587,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020-yil bilan taqqoslaganda 7,4% ga o'sdi.

Aholi jon boshiga hisoblaganda 2021-yilda YalM hajmi 21 039,2 ming so'mni (yoki 1 983,0 AQSH dollari ekvivalentda tashkil etdi va 2020-yil bilan taqqoslaganda 5,3% ga o'sdi. Ushbu o'sishlar mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hisobiga bo'lgan. Buning isboti o'laroq 2017–2021-yillardagi investitsiyalarning statistik tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 245,0 trln. so'm o'zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 23,1 mlrd. AQSH doll. o'zlashtirilgan bo'lib, 2020- yilga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,9% i yoki 151,5 trln.so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,1% yoki 93,5 trln.so'm moliyalashtirilgan.



5-grafik: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (trln. so'm)

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020-yildagi ulushiga nisbatan 1,6% punktga kamayib, 18,3 % ni yoki 44,8 trln.so'mni tashkil etgan.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbaalari hisobidan 200,2 trln.so'm yoki jami investitsiyalarning 81,7 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2020-yildagi ko'rsatkichiga nisbatan 1,6 % punktga ko'paygan.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 71 257,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,1 % ini tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati 3,6 % ga kamayganiga qaramasdan, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moli-



yalashtirildi. Bu, albatta, xo'jalik yurituvchi subyektlar birinchi navbatda ichki resurslaridan foydalangan holda o'z faoliyatini kengaytirish yoki modernizatsiya qilishni afzal ko'rishini isbotlaydi.



6-grafik: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning yillar kesimida o'sish sur'ati

2021-yilning yanvar-dekabrda 104 457,3 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2020-yilga nisbatan 105,2 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 42,7 % ni tashkil etdi

Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 39 879,4 mlrd. so'mni va mos ravishda xorijiy kreditlar 64 577,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, malakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy sektor sifatida sanoatni ko'rishimiz mumkin. YaIM da sanoatning ulishini o'rtoq uchun sanoatga yangi texnika va texnologiyalar, innovatsiyalarni targ'ib etish dolzarb masala hisoblanadi. Bu masalani yechimi sifatida sanoatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'riladi. Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi uchun mamlakatda qulay investitsion muhit mavjudligi va mamlakat iqtisodiyoti jizibador bo'lishi va mamlakatda qonun ustuvor bo'lishi va xususiyl mulkchilik huquqiy jihatdan havfsiz bo'lishi lozim. Qulay investitsion muhitni yaratishda turli xil iqtisodiy sanoat zonalarining tashkil etilishi eng muqobil yo'l hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan mamlakat sanoatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha faktorlar tizimli ravishda o'rganilib chiqilib amalda qo'llanilishi eng to'g'ri yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60- sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz/uz/docs/-5841063
2. D.G'.G'ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T: "Moliya" nashriyoti,2003., 23-bet.
3. N.X.Haydarov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.,2003.
4. U.Sharp, G.Aleksandr, J.Beyli. Investments. –M.:Infra–M.1997.
5. Nuranov I.B., Sayfullayeva Sh.O., "Investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati va uning o'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni". "SCIENCE AND EDUCATION" scientific journal, volume 1, issue 4.
6. Mamatov B. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. –T: "Moliya-Iqtisod", 2014.
7. N.G'.Karimov, R.X.Xojimatov, J.X.Razzoqov. Investitsiya. "Iqtisodiyot". –T-2019., o'quv-qo'llanma.
8. Imad A., Moosa. Foreign direct investment theory, evidence and practice. 2002., Great Britain by Antony Rowe Ltd. Chippenham, Wiltshire.
9. To'plam (2017) "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.,14.12.2019-yil.
11. N.G'.Karimov,R.X.Xojimatov, J.X.Razzoqov INVESTITSIYA o'quv qo'llanma "Iqtisodiyot" –2019.

Internet ma'lumotlari.

1. <https://www.spot.uz/oz/2018/11/12/erkin-iqtisodiy-zona/>
2. <https://www.spot.uz/oz/2018/11/12/erkin-iqtisodiy-zona/>
3. www.journal.bfa.uz
4. www.lex.uz
5. www.stat.uz
6. www.cbu.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.